


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI

**60310200 – Xalqaro munosabatlar bakalavriat ta'lif
yo'nali shining**

MALAKA TALABI

Toshkent - 2024



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil “25” 06 dagi 218-sonli buyrug‘i bilan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>Umumiy tavsifi</i>	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
2.	Kasbiy kompetensiyalarga qo‘yiladigan talablar	7
3.	Amaliyotga qo‘yiladigan talablar	7
4.	Fanlar katalogining tuzilishi	8
	Bibliografik ma’lumotlar	9
	Kelishuv varag‘i	10

1. Umumiy tavsifi

60310200 – Xalqaro munosabatlar ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlash oliv ta’limning o‘quv reja va fan dasturi asosida kunduzgi ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit - modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi

Malaka talabi **60310200** – “**Xalqaro munosabatlar**” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlovchi barcha oliy ta’lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilar:

mazkur ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv-uslubiy bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim tashkilotining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalar;

ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarning tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatning sohalari:

60310200 – Xalqaro munosabatlar – “Ijtimoiy, siyosiy, siyosiy-tahliliy” davlat va jamiyatning xalqaro munosabatlar va tashqi siyosat bilan bog‘liq barcha yo‘nalishlarida kompleks masalalarni yechish, davlat va mahalliy boshqaruv organlari, davlat korxona, tashkilotlari, turli fondlar va loyihalarda hamda turli mulkchilik shaklidagi korxonalarda xalqaro munosabatlar bilan bog‘liq tashkiliy jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, ilmiy-tadqiqot muassasasi va markazlarida tegishli sohalar bo‘yicha mustaqil ilmiy faoliyat olib borish, xalqaro munosabatlarda siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnologik, harbiy- siyosiy, ijtimoiy-gumanitar, madaniy, mafkuraviy jarayonlarini hamda mintaqaviy va milliy xavfsizlik masalalarini kompleks o‘rganish, O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosati, diplomatiyasi va xalqaro munosabatlari sohalarida faoliyat olib borish kabilarni qamrab oladi.

Yo‘nalish bo‘yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrularning kasbiy faoliyat sohalarida qo‘sishma va o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarning obyektlari:

Ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqot muassasalari va tashkilotlari;

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi va uning tizimiga kiruvchi tegishli idoralar va muassasalar;

O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiysi va davlat boshqaruv organlari, siyosiy partiysalar, hokimliklar va boshqa davlat idoralari, muassasalarning xalqaro boshqarma va bo‘limlari;

Tashqi ishlar vazirligi markaziy apparati;

O‘zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlardagi konsullik muassasalari va diplomatik vakolatxonalar;

mamlakat va xalqaro faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan davlat va nodavlat tizimlarida xalqaroshunos-siyosatchi.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarning turlari:

- *Ilmiy-tadqiqot faoliyati;*
- *ma’naviy va ma’rifiy;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *ekspert-tahliliy;*
- *konsalting xizmati.*

1.2.4. Kasbiy vazifalar.

60310200 – Xalqaro munosabatlar ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda Xalqaro munosabatlar va siyosiy jarayonlar hamda davlat va jamiyat -boshqaruviga oid mavzularda tadqiqot olib borish;

chet tildagi manbalarni o‘qish va tarjima qila olish;

internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;

ilmiy va ilmiy-uslubiy faoliyat turlari bo‘yicha axborot-resurs kataloglarini tuzish va ulardan foydalanish;

ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalarni tashkil etish hamda ilmiy, tahliliy ommabop nashrlarda maqolalar bilan qatnashish;

Xalqaro munosabatlarning turli sohalaridagi tadqiqotlarda, ijtimoiy va kasbiy masalalarni hal etishda siyosiy fanlar, ijtimoiy-gumanitar va tabiiy fanlar uslubiyatini qo‘llash;

milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda ilmiy-texnologik innovatsiya yutuqlaridan foydalanish va ularning istiqbolli rivojlanishini bilish;

xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikning siyosiy muammolarini O‘zbekiston Respublikasining nuqtai nazarini tahlil qilish va asoslash;

umumiylazariya, model va umumlashtirish asosida siyosat va xalqaro munosabatlar doirasida ilmiy tadqiqotlar olib borish;

siyosiy tahlil qilish, tahlil natijalarini baholash, tushuntirib berish, siyosiy hodisa va xulqni, siyosiy institut va subyektlarning ishini, alohida shaxslarning rolini, siyosiy jarayonlar va boshqaruv yondashuvlarni baholash, tushuntirib berish va bashorat qilish;

O‘zbekiston milliy manfaatlarning ustuvor yo‘nalishlarini innovatsion yondashuvlarga asoslanib o‘rganish, tahlil etish va asoslab berish;

umumnazariy modellar hamda turli yondashuvlarini qo‘llagan holda ilmiy tadqiqotlar olib borish;

turli darajadagi tadqiqotlarda, professional faoliyatda ijtimoiy-gumanitar va tabiiy fanlar metodologiyasidan foydalanish;

tahlil va monitoring olib borish qobiliyatini rivojlantirish va uning asosida xulosa va tavsiyalar ustida ishlash, tahlil natijalarini anglash, baholash va tushuntirib berish, siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni boshqarish va bashorat qilish qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak.

Ma’naviy va ma’rifiy faoliyatida:

madaniy-ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy hayot sohalarida ilmiy-falsafiy meros, odob-axloq, qadriyat va bilim asoslarini real vaziyatda qo‘llay olish, amaliyatga tatbiq etish hamda milliy ma’naviyat, fuqarolik madaniyatini shakllantirish;

ma’naviy-ma’rifiy ishlarni rejalashtira olish, uni tashkillashtirish mexanizmi va metodikasini egallash, jamoa ongiga milliy istiqlol g‘oyasini singdirish;

mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni yuzaga keltirish usuli va texnologiyalarini bilish;

shaxsiy va kasbiy mahoratni doimiy rivojlantirib borish;

o‘z kasbining ijtimoiy mavqeini tushunishi, kasbiy va fuqarolik mas’uliyatini shakllantirish;

o‘zining kasbiy va shaxsiy faoliyatini tanqidiy baholash;

millatlararo muloqotning korporativ madaniyatini bilish, muzokaralarda kompromiss qobiliyatlariga ega bo‘lish;

jamiatni umuminsoniy va demokratik qadriyatlar asosida takomillashtirishga intilish; ko‘p millatlari va turli konfessional guruhlarda ishlash qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish;

jamoada ijtimoiy va ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish; fikrlar har xil bo‘lgan sharoitda to‘g‘ri qaror qabul qilish;

bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash;

tashqi siyosiy va iqtisodiy faoliyat olib boruvchi davlat va nodavlat tashkilotlari va ularning organlarida, korxona va muassasalarda ijroiya va ma’muriy ishlarni tashkil qilish;

diplomatik va rasmiy yozishmalarini amalga oshirish hamda xalqaro muzokaralar, uchrashuv va anjumanlarda ishtirok etish;

delegatsiyalarni kuzatib borish, suhbat va muzokaralarni tashkil etish va ularda ishtirok etish;

axborotlarni qabul qilish, saqlash, qayta ishlash, uzatish usullari va vositalardan samarali foydalanish;

kasbiy faoliyatda tizimli yondashuv asosida rejalashtirish, tashkil qilish, ijro etish va monitoring olib borish qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak.

Ekspert-tahliliy faoliyatida:

davlat organlarida, davlat va nodavlat tashqilotlarda, ilmiy tadqiqot va tahliliy institutlarda tahliliy va ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish;

tizimli fikr yuritish, umumlashtirish, tahlil qilish, tadqiqot maqsadini belgilash qobiliyati, muammoni hal qilish yo‘nalishini aniqlay olish, milliy manfaatlar asosida xalqaro munosabatlar yo‘nalishini tushunish, baholash va tegishli tavsiyalar yaratish;

O‘zbekiston Respublikasi milliy manfaatlaridan kelib chiqib, o‘z sohasining asosini kompleks anglashda tizimli tahlilni qo‘llash;

Xalqaro huquqiy normalar mohiyatini anglash, mazmunini bilish va ularning O‘zbekiston tashqi siyosatiga ta’sirini tushunish;

O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining konseptual asoslarini bilish;

xorijiy mamlakatlarning tashqi siyosati va ularning O‘zbekiston Respublikasi bilan o‘zaro munosabatlari xususiyatlarini tushunish;

ko‘p tomonlama diplomatiya mexnanzimlarini bilish va ulardan foydalanish;

diplomatik protokol va etiketni o‘rganish va amalda qo‘llash;

dolzarb siyosiy muammolarni aniqlash, tahlil etish va bashorat qila olish;

milliy manfaatlardan kelib chiqib, xalqaro munosabatlar va jahon siyosatining rivojlanish tendensiylarini mantiqan va izchil o‘rganish;

xalqaro va mintaqaviy xavfsizlik tahdidlari va muammolarini tushuna olish va ularni milliy xavfsizlikka ta’sirining oldini olish va bartaraf etishning usul va vositalarini bilish;

tizimli tahlil va optimal qaror qabul qilish usullarini o‘rganish va samarali qo‘llay olish;

miqdoriy va sifatli tahlil, deduktiv, statistik va kompyuterli modellashtirish, matnlarni va siyosiy jarayonlarni kuzatish asosida tahlil qilish va eksperimental uslublardan foydalanish qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak.

Konsalting faoliyatida:

siyosiy tendensiylar va jamoatchilik fikrini batafsil tahlil qilish orqali strategik qarorlar qabul qilish uchun ma’lumotlarni taqdim etish.

milliy va xalqaro siyosiy vaziyatni tahlil qilish, biznes va davlat tuzilmalari uchun xavf va imkoniyatlarni baholash.

yo‘nalishga mos mavzulardagi loyihalar, manbalar, adabiyotlar, elektron va audio mahsulolarni ekspertiza qilish;

ixtisoslikka mos sohalar bo‘yicha konsalting xizmatlarini ko‘rsatish.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar:

davlat siyosatining dolzARB masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo‘llay bilishi, axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishslash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

vatan tarixini bilishi, ma’naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o‘z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g‘oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo‘lishi;

axborot yig‘ish, saqlash, qayta ishslash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, o‘z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

Xalqaro munosabatlar ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida ilmiy tessavvur hamda e’tiqodga, o‘zini jismoniy chiniqtirish o‘quv va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

intellektual, madaniy, ma’naviy, jismoniy va kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirish va takomillashtirish qobiliyatiga ega bo‘lishi va bu qobiliyatni amalda qo‘llay olishi;

fikrlash madaniyatini egallagan bo‘lishi, og‘zaki va yozma nutqini asoslangan holda aniq bayon qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi;

egallangan tajribani tanqidiy ko‘rib chiqish qobiliyati, zarur bo‘lganda o‘z kasbiy faoliyatining turi va xarakterini o‘zgartirishi;

internet tarmog‘idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy metodlari, usullari va vositalariga ega bo‘lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

xalqaro munosabatlar va siyosatning umumbashariyligi hamda zamonaviy bosqichda dunyo davlatlari, shu jumladan O‘zbekiston, Markaziy Osiyo hamda Yaqin va Uzoq Sharq davlatlari rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlarini bilish hamda egallangan bilimlar asosida tahliliy ma’lumotlar tayyorlash, xulosa va takliflar ishlab chiqish qobiliyatini shakllantirish;

ikkita xorijiy tilni erkin so‘zlashuv darajasida egallagan bo‘lishi;

kasbiy faoliyatda ijtimoiy va tabiiy-ilmiy fanlarning asosiy qonunlaridan foydalanish, nazariy va eksperimental tadqiqot metodlarini qo‘llash ega bo‘lishi lozim.

3. Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malakaviy amaliyot o‘tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy jarayonlar bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Bibliografik ma’lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so‘zlar:

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta’lim yo‘nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o‘quv reja va fan dasturi (bakalavriat dasturi), o‘qib-o‘rganish natijalar, davlat ta’lim standarti, malaka talabalari, o‘quv jarayoni grafigi, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, o‘quv reja, gumanitar va tabiiy-ilmiy, umumkasbiy, ixtisoslik fanlari, o‘quv yuklamasi, nazariy ta’lim, attestatsiya, zamonaviy tadqiqot metodlari, modellar va modellash, ishchi dasturlar, ilmiy-tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya, malaka, ko‘nikma, tasavvur.

KELISHUV VARAG‘I

ISHLAB CHIQILGAN:

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Rektor S.S.Safayev

2024-yil «5» 06

M.O‘.

KELISHILDI:

O‘zbekiston Respublikasi
Tashqi ishlar vazirligi

Vazirning birinchi o‘rinbosari
B.J.A’loyev

2024-yil «6» 06

M.O‘.

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi

Direktor M.R.Boltabayev

2024-yil «8» 06

M.O‘.

Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zbekiston Milliy universiteti

Rektor I.U.Madjidov

2024-yil «6» 06

M.O‘.

Markaziy Osiyo xalqaro instituti

Direktor J.A.Vahobov

2024-yil «7» 06

M.O‘.



KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

2024-yil “8” 06

Biz quyida imzo chekuvchilar – Juhon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti rektori S.S.Safayev, Tashqi ishlar vazirining birinchi o‘rinbosari B.J.A’loyev, Markaziy Osiyo xalqaro instituti direktori J.A.Vahobov, O‘zbekiston Milliy universiteti rektori I.U.Madjidov birlashtirishda JIDUDA ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarining malaka talablari mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60310700 – Siyosatshunoslik

60310200 – Xalqaro munosabatlar

bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari malaka talablarini ishlab chiqilishda asosiy kadrlar iste’molchilari tomonidan qo‘yilgan talablar inobatga olingan.

Shuningdek, malaka talablarini ishlab chiqilishida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 23-iyuldagagi “Juhon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti faoliyatini tizimli isloq qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-330-sonli qarori; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-iyundagi “Juhon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3795-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 8-oktabrdagi IPF5847-sonli, “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yilda amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi 2020-yil 2-martdagagi PF-5953-sonli Farmonlari, 2019-yil 1-iyuldagagi “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4358-sonli qarorlarida va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-avgustdagagi “Juhon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining iqtisodiy-tahliliy faoliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 453-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi “Davlat ta’lim muassasalari hamda nodavlat ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 470-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2020-yil 9-yanvardagi RA1/1-20-sonli topshirig‘i, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020-yil 30-iyundagi “2020/2021-o‘quv yilidan kredit-modul tizimiga o‘tish to‘g‘risida”gi 357-son buyrug‘i, 2020-yil 3-avgustdagagi PQ-4796-sonli qarori, YUNESKO tomonidan joriy etilgan “Ta’limning xalqaro standart klassifikatsiyasi” (TXSK

2011) va "TXSK: Ta'lim va kasbiy tayyorlash sohalari" (TXSK-S 2013), hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021-yil 19-oktabrdagi "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar" O'zbekiston Respublikasining davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 35-2021-sonli buyrug'iда belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga asoslanib, shu bilan birga xalqaro tajribalarga muvofiq ishlab chiqilgan.


Bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha tayyorlangan malaka talablari va o'quv rejalarini ishlab chiqish bo'yicha turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda asosiy kadrlar iste'molchilari bo'lgan vazirliklar, idoralar va boshqa korxonalar mutaxassislari tomonidan muhokamadan o'tkazilib kelishildi.

Yuqoridagi ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablarini o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etilishi maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar
vazirining birinchi o'rnbosari

B.J.A'loyev



O'zbekiston Milliy universiteti
rektori

I.U.Madjidov

Markaziy Osiyo xalqaro instituti
direktori

J.A.Vahobov

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya
universiteti rektori

S.S.Safoyev

